



## IJTIMOIIY JAMIYAT TARAQQIYOTIDA OMMAVIY AXBOROT VOSITALARI FAOLIYATINING O'RNI VA AHAMIYATI

*Raxmatulloyev Murodjon Xikmatulloyevich*  
*Buxoro davlat universiteti tadqiqotchisi*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada jamiyat va ijtimoiy jamiyat, ijtimoiy jamiyat taraqqiyotida ommaviy axborot vositalarining o'rni, O'zbekistonda fuqarolik, huquqiy, demokratik, dunyoviy jamiyat barpo etishda ommaviy ahborot vositalari faoliyatining ahamiyati, uning global miqyosda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarga ta'siri, ommaviy axborot vositalari hayotimizning ajralmas qismi ekanligi haqida so'z boradi.

**Kalit so'zlar:** jamiyat, ijtimoiy jamiyat, taraqqiyot, ommaviy axborot vositalari, fuqarolik, huquqiy, demokratik, dunyoviy jamiyat, siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlar.

### РОЛЬ И ЗНАЧЕНИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ СМИ В РАЗВИТИИ СОЦИАЛЬНОГО ОБЩЕСТВА

**Аннотация:** В данной статье общество и социальное общество, роль средств массовой информации в развитии социального общества, значение средств массовой информации в становлении гражданского, правового, демократического, светского общества в Узбекистане, его влияние на политические, экономические, социальные и культурные процессы на глобальном уровне, средства массовой информации являются неотъемлемой частью нашей жизни.

**Ключевые слова:** общество, социальное общество, развитие, средства массовой информации, гражданское, правовое, демократическое, светское общество, политические, экономические, социальные и культурные процессы.

### THE ROLE AND SIGNIFICANCE OF THE ACTIVITY OF THE MEDIA IN SOCIAL SOCIETY DEVELOPMENT

**Abstract:** In this article, society and social society, the role of mass media in the development of social society, the importance of mass media in the establishment of a civil, legal, democratic, secular society in Uzbekistan, its impact on political, economic, social and cultural processes at the global level, the media is an integral part of our lives.

**Key words:** society, social society, development, mass media, civil, legal, democratic, secular society, political, economic, social and cultural processes.

Jamiyat so'zi lotin tilidan olingan bo'lib, "socium" - umumiy "degan ma'noni anglatib, kishilarning tarixan qaror topgan hamkorlik faoliyatlari yig'indisidir. Jamiyatda moddiy va ma'naviy boyliklar, insonlar hayoti uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlarni yaratish kabi barcha holatlar ma'lum bir faoliyat jarayonida amalga oshadi. Uning asosiy mazmunini insonlar faoliyati va ular o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar tashkil etadi. Bunga ishlab chiqarish, oilaviy, siyosiy, huquqiy, axloqiy, diniy, estetik faoliyatlari va ularga mos keluvchi munosabatlar kiradi. Jamiyatdagi ijtimoiy soha undagi ijtimoiy guruhlar, tabaqalar, toifalar hamda milliy birliklar, ularning ijtimoiy hayoti va faoliyatini



uyg'unlashtiradi. Yurtimizda jamiyat taraqqiyotining eng asosiy muammosi insonlarning, ayniqsa yosh avlodning ma'naviy dunyosini shakllantirish va boyitish, ularni istiqloq mafkurasi asosida tarbiyalash, o'zbek xalqining boy madaniy va ma'naviy merosi, qadriyatlarini, an'analari va urf-odatlarini egallashlari uchun shart-sharoit yaratishdir. O'zbekistonda fuqarolik, huquqiy, demokratik, dunyoviy jamiyat barpo etilmoqda. Bu esa jamiyatdagi jadal taraqqiyotning muhim mezonini hisoblanadi.

Ijtimoiy jamiyat yoki muhit bu insonning yashashi va ishlashi uchun uni o'rab turgan ijtimoiy, moddiy va ma'naviy shartsharoitlar yig'indisi bo'lib, undagi ijtimoiy-iqtisodiy tizimni - ishlab chiqaruvchi kuchlar, ijtimoiy munosabatlar va tartib-qoidalar hamda jamiyatning ijtimoiy ong va madaniyatini o'z ichiga oladi. Shu bilan birga insonni qurshab olgan oila, mehnat, o'quv jarayoni kabilarni o'z ichiga oladi. Ijtimoiy jamiyat yoki muhit har bir shaxsning shakllanishi va rivojlanishi uchun hal qiluvchi ta'sir ko'rsatadi. Insonning ijodiy faolligi, faoliyati ta'sirida ijtimoiy muhit o'zgarib boradi. Bu o'zgarishlar jarayonida odamlarning o'zlari ham o'zgaradi.

O'zbekistonda fuqarolik, huquqiy, demokratik, dunyoviy jamiyat barpo etishda ommaviy axborot vositalari faoliyati hal qiluvchi o'rin tutadi, nafaqat muayyan mamlakatlar, balki global miqyosda siyosiy, iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy jarayonlarga jiddiy ta'sir ko'rsatadi. Bugungi kunda ommaviy axborot vositalari hayotimizning ajralmas qismiga aylangani va ijtimoiy munosabatlar tizimida ularning ahamiyati katta ekanligini alohida ta'kidlash zarur. Ommaviy axborot vositalari jamoatchilik fikrini shakllantirishning eng muhim omillaridan biri hisoblanadi. Ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari ularning rivojlanishiga xizmat qilmoqda, chunki texnologiya yordamida axborot olish imkoniyati tobora kengaymoqda. Ayni paytda, globallashtirish sharoitida turli mamlakatlarning tarixiy-madaniy hususiyatlari va rivojlanishdagi o'ziga hosliklarini saqlab qolish maqsadida axborot xavfsizligini ta'minlashning ahamiyati ortib bormoqda.

Demokratik taraqqiyot yo'lini tanlagan bizning mamlakatimizda ommaviy axborot vositalari kuchli fuqarolik jamiyatini qurishning muhim vositasi hisoblanadi. Ular faoliyatining huquqiy bazasi yaratilgan va u takomillashtirilmoqda, bu baza axborotning ochiqligi, oshkorligini kafolatlaydi. U nafaqat davlat, balki aholining turli qatlamlari uchun mo'ljallangan mustaqil ommaviy axborot vositalari sonining ortishiga xizmat qiladi. Mamlakatimiz ommaviy axborot vositalarining ilg'or axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), shu jumladan, raqamli texnologiyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish jamiyatni yanada demokratlashtirish jarayonida ularning faolligini va ta'sirini oshirishga yordam beradi.

Ijtimoiy jamiyat taraqqiyotida ommaviy axborot vositalari sohasi bilan bog'liq uchta asosiy jihat quyidagilardan iborat. Jumladan, ular axborot ishlab chiqaruvchilar sifatida faoliyat olib borishadi, ommaga ta'siri kuchli hamda turli axborotlarni yetkazish vositasi sifatida AKTni rivojlantirish masalalarini ham o'zida mujassam etadi.

Bugungi kunda axborot maydonining globallashtirish jarayonida zamonaviy texnologiyalarga asoslangan televideniye va internetning paydo bo'lishi hisobiga sayyoramizning turli mintaqalari ommaviy axborot vositalari ish tajribasini o'rganish dolzarb vazifaga aylanmoqda. Birinchi navbatda ommaviy axborot vositalari faoliyati va axborot texnologiyalaridan foydalanishda madaniy, tarixiy, iqtisodiy va boshqa turli yondashuvlar mavjud bo'lgan G'arb, Osiyo mamlakatlari tajribasini o'rganish lozim. Bunday tajribani o'rganish Markaziy Osiyo davlatlari uchun ayniqsa muhim, chunki bugungi kunda ular o'z rivojlanish hususiyatlarini hisobga olgan holda milliy va mintaqaviy axborot maydonlarini kengaytirish siyosatini amalga oshirmoqda.



Globallashuv sharoitida axborotlashuv jamiyatlari jadal shakllanayotgan, global va mintaqaviy xavfsizlikka nisbatan yangi tahdidlar va yangi muammolar paydo bo'layotgan hozirgi sharoitda yetakchi ommaviy axborot vositalarining strategiyasiga oid masalalar asosiy hal qilinishi lozim bo'lgan vazifalardan biridir.

Zero, ommaviy axborot vositalari ijtimoiy jamiyat taraqqiyotida biznes bilan aloqadorlikni, muhim mezon hisoblangan jamoatchilik fikrini shakllantirishda, turli tarbiya vositasi sifatida ta'sir ko'rsata olishda har bir mamlakatning yetakchi kuchi hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, davlatlardagi axborot hududlarining rivojlanishi va shakllanish istiqbollari "raqamli" texnologiyalarga asoslangan zamonaviy ehtiyotga zarurat mavjud. Shu bilan birga soha rivojida dunyoning yetakchi mamlakatlari bilan mustahkam hamkorlikni yo'lga qo'yish lozim. Davlatimiz siyosatining mazmun-mohiyatini, yurtimizda kechayotgan islohotlar jarayonini chuqur tahliliy yondashgan holda, xolis va ayni paytda xalqimizga tezkor yetkazishda, jamoatchilik fikrini shakllantirishda, odamlarning axborotga bo'lgan ehtiyojini qondirishda ommaviy axborot vositalarining ahamiyati beqiyosdir.

Shu bois yurtimizda ommaviy axborot vositalarining iqtisodiy erkinligini ta'minlash, ularni har tomonlama qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish, moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, jurnalist kadrlarni tayyorlash, qayta tayyorlash, kasbiy malaka va mahoratini oshirish borasida keng ko'lami ishlar amalga oshirilmoqda. Yurtboshimiz taklifi bilan O'zbekiston Mustaqil bosma ommaviy axborot vositalari va axborot agentliklarini qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish jamoat fondining tashkil etilishi yurtimizda matbuot, axborot agentliklari va internet-nashrlar rivoji yo'lida ko'rsatilayotgan e'tibor va g'amxo'rlikning yana bir yorqin ifodasi bo'ldi.

O'tgan bir yil mobaynida fond yurtimizning chekka hududlaridagi bosma nashrlarni qo'llab-quvvatlash va faoliyatini yanada takomillashtirish borasida qator media-loyihalar, ijtimoiy grant dasturlarini amalga oshirdi. Buning natijasida ko'plab viloyat, tuman bosma nashrlarining moddiy-texnik bazasi mustahkamlanishi barobarida, ularning aksariyati o'z internet-sahifasiga ega bo'ldi. Bu esa O'zbekistonning ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'rifiy hayotiga oid xolis axborotlardan nafaqat mazkur nashrlarning obunachilari, balki dunyo miqyosida keng foydalanish imkonini bermoqda.

Ommaviy axborot vositalari o'rtasida sog'lom ijodiy raqobat, jurnalist kadrlarning zamon bilan hamnafas va hamqadam bo'lishi, o'z kasbiy mahorati bilan birga siyosiy bilimi va tafakkur salohiyatini muttasil oshirib borishi davr talabidir. Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joizki, ijtimoiy jamiyat taraqqiyotida ommaviy axborot vositalari inson manfaatlarini ta'minlash, ijtimoiy himoya tizimini takomillashtirish, jamiyat ma'naviyatini yuksaltirish kabi "Ijtimoiy himoya yili" Davlat dasturida ko'zda tutilgan vazifalarni amalga oshirishda, axborot jarayonlari globallashuvi sharoitida mamlakatimiz milliy manfaatlarini ta'minlashda muhim ahamiyatga ega.

#### **Adabiyotlar ro'yxati:**

1. Islomov Z., Xusanov O., Mirhamidov M. Huquqshunoslik. T., 2000.
2. Tulenov J., Tulenova G., Tulenova K. Falsafa. To'ldirilgan ikkinchi nashr, Fan va texnologiya, 2016.
3. Mirziyoyev Sh. Niyati ulug' xalqning ishi ham ulug', xayoti yorug' va kelajaki farovon bo'ladi,"O'zbekiston", 2019.
4. Ergashev I. Milliy g'oya targ'ibot texnologiyalari // - T.: "Maashhurpres", 2016.